



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKI VA UNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI

Umarov Farrux

Bank moliya akademiyasi MBA Banking fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ta'kidlash joizki, tijorat banklari faoliyatidagi risklarning chuqurlashishi nafaqat banklarning o'ziga, balki ulaming mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda. Bunga yorqin misol qilib, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganlaridek, "Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi¹" Ushbu maqolada risk va uning xorij tajribasi haqida tushunchalar keltirib o'tilgan. Bu ham o'z navbatida Respublikamizning bank tizimi sohasidagi rivojlanishlarning jadal tus olishi uchun qo'shimcha fikr va g'oyalarimiz bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: kredit riski, tahlil, foiz stavkasi, resurs, fiksirlangan stavkali kredit, veksel iqtisodiyot, bank tizimi, daromad, kredit portfeli, tijorat banklari, samara, kredit, mablag'.

Kirish:

Bank tomonidan to'plangan resurslarni to'g'ri va oqilona joylashtirish bankning kredit siyosatining sifatiga bog'liq bo'ladi. Kredit siyosati sifatiga va holatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to'g'ri joylashtirish va oldindan ko'zlangan daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi vaqtda ixtisoslashgan, tarmoq va universal banklarning mavjudligi banklar uchun bank riski ko'lamlarini har xillashtiradi. Ixtisoslashgan banklarning bir soha, bir tarmoqni kreditlashga moslashuvi ular faoliyatida risklarning yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu holat bank riskini boshqarishning asosiy usullarini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini aniqlay olish bankning kredit, investitsiya,

¹ 1 Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning vo'llari va choralar. -Toshkent: O'zbekiston, 2009. -4-b.




valyuta, hisob kitob operatsiyalari va boshqa faoliyatida ularni qo'llab to'g'ri qaror qabul qilishga erishish orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi.

Asosiy qism:

Foiz stavkasining noto'g'ri o'rnatilishi kredit mahsulotlarini sotishda, omonot yoki aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilishda muammolarga sabab bo'lishi va tijorat banklarining daromadi tushishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy bozor sharoitida faoliyat yuritib borayotgan banklar uchun foiz riskini baholash, tahlil qilish va boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bankning risklarni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish va bank risklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risk bu - tadbirkorlikning eng asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.



Tadqiqot metodologiyasi

Riskning o'ziga xos xususiyatlari² bu – noaniqlik, kutilmagan holat, ishonchsizlik va tahmin. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida risk darajasi oshadi. "Iqtisodiy riskni" asosiy fuknsiyalari:

1. Riskni analitik funksiyasi – turli xil variantlarni tahlil qilish va maqsadga yetish (maksimum daromad va riskning mu'tadil darajasi). Ba'zi bir masalalarni yechish uchun tajribani ishlatish kerak.
2. Riskni innovatsion funksiyasi – noan'anaviy qarorlarni uylab topish bilan bog'liq faoliyat.(yangilik)

² 2 «Риски в экономике» Л.Н.Тэпман. Проф В.А.Швандарнинг редакцияси остида, Москва-2002 г., 8-с

3. Riskni regulyativ funksiyasi – ikki xil shaklda bo'lish mumkin: konstruktiv va dekonstruktiv.

Konstruktiv shakli:


a) Qarama – qarshilik, alternativlarni yuqori noaniqlik bilan yechish risk holatida afzallik natijalarga ega bo'lish;(foyda)

Dekonstruktiv shakli :

b) "Riskni" oqlash qoidasiga qarshi asossiz qarorlarni qabul qilish va ushbu qaror bo'yicha harakat qilish(zarar). Noaniqlilik, bu albatta noaniq, ya'ni kutilmagan holatlar bilan bog'liq. Uning yuzaga kelish va tus olish shakli noaniq bo'lib qolaveradi.

«Risk va noaniqlilik kategoriyasi iqtisodiy munosabatlarda katta rol o'ynaydi. Ho'jalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan noaniqlilik barcha murakkab va muhim iqtisodiy hodisalarining asosida yotadi. Noaniqlilik mohiyati riskda namoyon bo'ladi³»

Bank risklari to'g'risida iqtisodchi olimlarning fikrlari hilma-xil bo'lib, ular bu tushunchaning mohiyatini turlicha talqin qilganlar. Buning sababi shundaki, risk keng ma'noli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi ko'p qirrali tushunchadir. Risklar haqida so'z ketganda, birinchi navbatda, ushbu so'zning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblayman.




³ «Система страхования банковских рисков» Ю.А.Соколов, Н.А.Амосова, Москва-2003 г., 6-с

«Risk» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingen bo'lib, «suv ostidagi qoyatosh» ma'nosini anglatadi. Qadimda dengizchilar suv osti toshlarining chiqib qolish xatarini risk deb atagan. Shuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli mavjudligini ifoda qiladi. Ba'zi xorijiy iqtisodchi olimlarning shu sohadagi ishlari bilan tanishib, ular tomonidan ham bank risklarining mohiyatiga turli xil ta'rif va tasnif berilganligini ko'rish mumkin.

Taniqli lug'atchi S.N.Ojegovning rus tili lug'atida «risk» bu «muvaqqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid» degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskga «Xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli», deb qaralgan.

V.T.Sevruk «Risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'lidan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir» degan ta'rif beradi . Professor V.M.Usoskin «Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'limgan voqealar bilan bog'liq bo'ladi» deb izohlaydi.



Ba'zi mualliflar tomonidan risk bu noaniqlik deb ta'riflanadi. E.S.Stoyanova «Risk - bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir» deb ta'rif keltirgan. P.G.Graboviy, S.N.Petrova, S.I.Poltalsevlarning «Риски в современном бизнесе» kitobida «Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha harajatlar qilish xavfidir», deb ta'rif berganlar

XULOSA

Tijorat banki barqaror holatining asosi bolib, uning moliyaviy barqarorligiga xizmat qiladi. Bankning moliyaviy bargarorligiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi



raqobatbardoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotlarini o'tkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rinni tutadi. Bu esa samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro'sining muhtahkamlanishiga imkon beradi. Bankning ichki barqarorligi - bu tijorat banki faoliyatining barqaror, yuqori natijalarini ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasidir. Tijorat bankiga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat miqyosidagi bozor iqisodiyotiga xos boshqarish tizimi orqali erishiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari moliyaviy natijalarining yakuniy holati foyda yoki zarar bilan tugallanadi. Banklar tizimida buxgalteriya hisobini yuritish ishini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega, chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini ta'minlaydi. Umuman olganda tijorat banklari o'z ish faoliyatining yakunlarini foyda bilan tugatishga harakat qiladilar. Bank muassasalarining ish prinsipi kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olish hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi. Bank faoliyati asosan 2 ta moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish orqali yakunlanadi. Bankning daromadliligi birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liq. Tijorat banklari operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash va boshqa turdagi xarajatlarni o'z zimmasiga olishiga to'g'ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturi 2017 yil 12 sentabr.
2. Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidliliginin ta'minlashni takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. olish uchun diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 15 b. 21. Omonov A.A.
3. "Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish". T.: "Fan va texnologiya" Monografiya, 2008 yil. 248 b.
4. O.I.Lavrushin "Управление деятельностью коммерческого банка". 2003 y 228 b
5. «Риски в экономике» L.N.Terpan, professor V.A.Shvandarning redaktsiyasi ostida, Moskva-2002 yil.



FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/2460>
2. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/187/182>
3. <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/download/3572/3431/3383>
4. <https://www.denetim.com/uz/testler/stratejik-risk-yonetimi/kredi-riski/>
5. <https://www.denetim.com/uz/testler/stratejik-risk-yonetimi/kredi-riski/>
6. <https://www.slideshare.net/slideshow/2-mavzu-oxirgisi-bank-risklarini-boshqarish-tizimi/266750460>
7. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/13038/9024/8768>